

ODATGA AYLANIB BORAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR

Nosirova Dilfuza Nabiyevena

Andijon viloyati yuridik texnikumi ingliz tili fan o'qituvchisi, 3-darajali yurist

Adahambekov Qudratbek Avazbek o'g'li

Ahmedov Abdulloh Qobiljon o'g'li

Andijon viloyati yuridik texnikumi talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqola jamiyatimizda odatga aylanib borayotgan huquqbuzarliklar to'g'risida habar berish maqsadida yozilmoqda, Afsuski, bugungi kunga kelib ayrim huquqbuzarliklar bizning hayot tarzimizga aylanib ulgurdi. huddi smartfonlar bizning hayotimiz o'zgaras qismiga aylanganidek. Qonunchilikda belgilab qo'yilgan normalarni mensimaslik, haydovchilar va yo'lovchilarning o'z huquq va majburiyatlarini lozim darajada anglamasliklari, insonlar o'zaro munosabatlaridagi turli xil bemazagarchiliklar va haqoratlar shular jumlasidan.*

Kalit so'zlar: *Huquqbuzarlik, huquq, jamiyat, oila, piyoda, haydovchi, qoida, norma*

O'zaro munosabatlardagi odatga aylanib borayotgan huquqbuzarliklar

Musulmon huquqi, jahondagi asosiy huquqiy tizimlardan biri hisoblanadi va asosan Islom dini talablaridan kelib chiqqan munosabat va axloq qoidalari hamda ularni buzganlik uchun qo'llaniladigan jazolarni o'z ichiga oladi. Musulmonlar o'rtasidagi munosabatlarda Qur'on, Sunna, Ijmo, Qiyos, va Urf-odat kabi manbalar asosiy rol o'ynaydi. Musulmon huquqi faqat musulmonlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qiladi va bu munosabatlar o'zaro hurmat, adolat, va tenglik prinsiplariga asoslangan bo'lishi kerak.

Muomala madaniyati, o'zga insonga bo'lgan munosabat madaniyati bilan belgilanadi va bu, faqat salom-alik qilgandagina emas, balki hayot tartibida, har kunlik hayot tarzida insonga ko'rsatiladigan hurmatli va e'zozli, samimiy va to'g'ri munosabatni anglatadi. Musulmonlar o'rtasidagi munosabatlar, Islom dini asosida qurilgan va bu diniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashuvni talab qiladi.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlar doirasida odatga aylanib borayotgan huquqbuzarliklar, jamiyatda keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Bunday huquqbuzarliklar turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, masalan, internet orqali tuhmat va haqorat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarzda to'plash yoki tarqatish, va jinsiy zo'ravonlik kabi jiddiy jinoyatlar.

Jamiyatda inson huquqlarining hurmat qilinishini ta'minlash maqsadida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlar mavjud¹. Ushbu deklaratsiya insonning asosiy huquqlarini himoya qilish va barcha odamlar o'rtasida birodarlik ruhida munosabatda bo'lishni targ'ib qiladi.

Shuningdek, davlatlar o'z milliy qonunchiliklarida turli huquqbuzarliklarga qarshi kurashish choralari ko'rishadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida

ham insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qator qonunlar mavjud, va bu qonunlar orqali huquqbuzarliklarga qarshi turli jazo choralari belgilangan.

Bugungi kunda jamiyatimiz insonlari o'rtasida bir biriga nisbatan bo'layotgan munosabat, muomala va hatti-harakatlar ko'p hollarda insonning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitmoqda. Insonlarning psixologik tomondan hech narsani bilmasliklari ham buning sababi deb o'layman.

Psixologiya - bu insonning ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari, fikrlash jarayonlari, xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlari haqidagi fan. U odamlarning o'zaro munosabatlari, muammolarni hal qilish usullari, shuningdek, turli vaziyatlarga moslashuvchanlik qobiliyatlarini o'rganadi. Psixologiya, shuningdek, insonning rivojlanishi, o'sishi va o'zgarishini ham kuzatib boradi.

Psixologiya sohasida ko'plab yo'nalishlar mavjud, masalan, klinik psixologiya, pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqalar. Har bir yo'nalish o'ziga xos masalalarni hal qilishga qaratilgan. Masalan, klinik psixologiya ruhiy kasalliklarni davolash bilan shug'ullanadi, pedagogik psixologiya esa ta'lim va tarbiya jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Psixologiya fanining rivojlanishi insoniyatning turli madaniyatlari va tarixiy davrlarida turlicha bo'lgan. Bugungi kunda psixologiya fanining yutuqlari ko'plab sohalarda, jumladan, ta'lim, ishlab chiqarish, sport va hatto texnologiyalarda qo'llanilmoqda. Ushbu fan insonlarning hayot sifatini yaxshilash va ularning turmush tarzini boyitishga katta hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda ko'p sonli odamlarning psixologiyani bilmasliklari ayrim yoshlarimizni fikrlash va rivojlanish bosqichlarini to'xtatib yoki salbiy tarafga burib yubormoqda, jumladan ota-onalarning ham. Ota-onalar mening fikrimcha, bola psixologiyasini lozim darajada bilishlari kerak. Chunki bolalar o'sib borayotgan avlod, ular juda nozik bo'lishadi va kim qaysi tarafga yetaklasa ketaverishadi. Agar ota-ona bolaning psixologiyasini mustahkam qilsa va tarbiyani lozim darajada bersa keyinchalik bu ham ota-onaga ham bolaga foyda, shuningdek jamiyatga ham.

Oila mavzusi ochilgan ekan, shuni ta'kidlash joizki, ming afsuslar bo'lsinki jamiyatimizda shunday ota-onalar bor, yosh bolasiga yoki chaqalog'iga turli hil haqoratli so'zlar bilan murojaat qiladi yoki arzimagan qilgan aybi uchun shu darajada urishib beradiki, buni hatto o'ylash ham daxshatli. Endi o'zingiz bir hayol qiling, yoshligidan arzimagan narsaga so'kish eshitgan, turli haqoratlar miyyasiga quyilgan bola, voyaga yetganidan keyin asabiy, yoki o'g'zidan haqorat tushmaydigan bola bo'lishiga kim kafil bo'ladi. Eng o'g'ir juhati shundaki, ertadan keyin ana o'sha bola o'zi ota-onasidan o'rgandan haqoratlarni, asabiylikni, arzimagan narsaga urishishni ularga qaytaradi va ota-onaning birinchi aytgan gapi bilasizmi nima bo'ladi: "qayerda xato qildim?"

"Qush uyasida ko'rganini qiladi". Oiladan olgan tarbiyani har qanday odam tashqarida namoyon qiladi. Hech birimizga sir emaski "haqorat qilish" - bu huquqbuzarlik hisoblanadi.

Haqorat qilish, bu shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish yoki beodoblik bilan qasddan tahqirlashdir. Ushbu harakatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ma'muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Masalan, haqorat qilish ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilsa, jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin, va ommaviy axborot vositalari orqali haqorat qilish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Haqorat qilish turli shakllarda bo'lishi mumkin, masalan so'kinish, ijtimoiy qoralanuvchi atamalar ishlatish, salbiy tarixga ega atamalar aytish, yoki odam fe'l-atvorini salbiy baholovchi atamalar qo'llash kabi. Agar haqorat qilish jabrlanuvchini o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog'liq holda, xavfli retsidivist tomonidan yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan bo'lsa, bu yanada jiddiy javobgarlikka tortiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, haqorat qilish har doim muayyan bir shaxsga qaratilgan bo'ladi va muayyan bir shaxsga qaratilmasdan aytilgan uyatsiz-beodob so'zlar va xatti-harakatlar bezorilik deb baholanishi mumkin.

Qo'pol munosabatda bo'lish, bu boshqalarga nisbatan hurmatsizlik va e'tiborsizlik ko'rsatishdir. Bu, odatda, keskin so'zlar, tanqid, yoki tahqirlash orqali namoyon bo'ladi va o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi. Qo'pol munosabatlar, shuningdek, ish joyida, oilada, va ijtimoiy aloqalarda muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Qo'pol munosabatga duch kelganda, eng yaxshi yo'l - bu vaziyatni tinch va o'ylangan tarzda hal qilishdir. Agar mumkin bo'lsa, qo'pollikni e'tiborsiz qoldirish yoki munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qilish kerak. Shuningdek, o'z his-tuyg'ularingizni ifoda etish va muammo haqida ochiq muloqot qilish ham muhimdir.

Agar qo'pol munosabat davom etayotgan bo'lsa va bu sizning hayotingizga salbiy ta'sir qilayotgan bo'lsa, professional yordam olishni o'ylab ko'rishingiz mumkin. Psixolog yoki maslahatchi bilan suhbatlashish, vaziyatni qanday boshqarish va o'zini hurmat qilishni qanday saqlab qolish haqida foydali maslahatlar berishi mumkin.

Jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun, har bir fuqaro o'z huquq va majburiyatlarini bilishi, huquqiy savodxonligini oshirishi va huquqbuzarliklarga qarshi turishda faol ishtirok etishi muhimdir. Insonlar o'rtasidagi munosabatlar orasida odatga aylanib borayotgan huquqbuzarliklar to'g'risida ko'p fikr yuritish mumkin. O'ylaymani hozircha shularni o'zi kifoya qiladi.

Haydovchilar va piyodalarga tegishli odatga aylanib borayotgan huquqbuzarliklar

1. Haydovchilar

Uzoq vaqt davomidagi o'rganishlarim shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda jamiyatimizda afsuski haydovchilar ko'plab majburiyatlarini bajarishmas ekan. Hech kimga sir emas, haydovchilik guvohnomasini olish uchun talabgorlar bir qancha imtihonlardan o'tadilar, ammo ana o'sha imtihon vaqtida sodir etishdan qo'rqqan xatolarni ko'p haydovchilar katta yo'llarda bemalol sodir etadilar, hosh, bu ikkisi teng bo'lurmi?!

Imtihon vaqtida yo'l belgilarini adashtirmagan va ularga rioya qilgan, belgilandan yo'l chiziqlaridan chetga chiqmagan, chegaralangan tezlikdan oshmagan talabgor, haydovchilik guvohnomasini olgandan so'ng o'zgaradi qoladi. Piyodaga yo'l bermaslik, avtomobil boshqaruvi chog'ida chalg'ituvchi vositalardan foydalanish, xavfsizlik kamarini taqmaslik va shu kabilar. Albatta haydovchilarning bu qilmishlari ko'plab insonlarning hayotiga nuqta qo'yishi mumkin. Kun.uz ning 2023 yilgi xabariga ko'ra O'zbekistonda bir yilda avtohalokatlar oqibatida 2356 kishi halok bo'lgan. Albatta bu achinarli holat.

2. Piyodalar

Albatta tanganing ikkinchi tarafi bo'lganidek, piyodalarda ham ayb bo'lishi mumkin. Shunday piyodalar borki, qoidalariga amal qilmaydi. Piyodalar uchun belgilangan yo'lakdan o'tish o'rniga, avtomobil qatnov qismini kesib o'tadi, yo'lni kesib o'tayotgand turli chalg'ituvchi vositalardan foydalanadi va svetaforiga amal qilmaydi. Albatta yo'l transport hodisalariga piyodalarning beetiborliklari ham sabab bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar bu muallifning shaxsiy va subyektiv fikrlari. Umid qilamanki, ushbu maqolani o'qigandan so'ng o'zingizning sodir etayotgan huquqbuzarliklaringizni ko'rasiz va ularni yo'qotishga harakat qilasiz. Unutmang, yo'l qoidasi - umr foydasi. Va albatta insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekansiz, odob-ahloq qoidalariga rioya qiling, bu albatta o'zingiz va boshqalar uchun yaxshi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kun.uz
2. Uz.wikipedia.org
3. Unicef.org
4. Scientificacademy.org
5. Lex.uz
6. Yuz.uz
7. Norma.uz
8. Behruzbeq.uz
9. Marifat.uz